

BOSHLANGISH SINFLARNI JISMONIY TARBIYA DARSLARDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Rahimov Bobirjon Abdurasulovich

Andijon davlat universiteti

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya: Harakatli o'yinlar boshlangich sinf darslarida ham ancha keng o'rin oladi. Bu sinflardagi harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya darslarida hosil qilingan harakat ko'nikmalarini takomillashtirish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Darsning asosiy qismi muayyan vazifani amalga oshirishga, masalan, basketbol uyinining asosiy elementlarini o'rgatishga doir o'yin materiallaridan iborat bo'lsa, uning kirish kismida "To'plar poygasi" singari harakatli o'yinlardan foydalanish mumkin. Bunday hollarda darsning asosiy qismiga "Ovchilar va o'rdaklar", "Otishma" o'yinlari kiritiladi. Darsga bolalarga notanish bo'lgan o'yinlarni kiritmaslik kerak.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, yuqori, jismoniy, sport, o'rta, xalq, o'yinlari, sinf, daraja, chaqqonlik, farosatlilik.

Abstract: Action games are widely used in primary school classes. Movement games in these classes serve to improve and strengthen movement skills developed in physical education classes. If the main part of the lesson consists of game materials related to the implementation of a specific task, for example, teaching the basic elements of a basketball court, in its introductory part, action games such as "Ball race" can be used. In such cases, "Hunters and ducks" and "Shooting" games are included in the main part of the lesson. Games that are unfamiliar to children should not be included in the lesson.

Key words: New Uzbekistan, high, physical, sports, middle, people, games, class, level, agility, resourcefulness.

Аннотация: Экшн-игры широко используются на уроках начальной школы. Двигательные игры на этих занятиях служат совершенствованию и закреплению двигательных навыков, вырабатываемых на занятиях по физическому воспитанию. Если основная часть занятия состоит из игровых материалов, связанных с выполнением конкретного задания, например, обучение основным элементам баскетбольной площадки, в его вводной части могут быть использованы такие игры, как «Гонка с мячом». В таких случаях в основную часть занятия включаются игры «Охотники и утки» и «Стрельба». Не следует включать в урок игры, незнакомые детям.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, высокий, физический, спортивный, средний, люди, игры, класс, уровень, ловкость, находчивость.

Kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodning sog'ligini saqlash va mustahkamlash mamlakatimizning eng asosiy va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biridir.

Davlatimizning ertangi kuni, gullab-yashnashi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom, har tamonlama etuk va barkamol insonlar bo'lib voyaga etishiga bevosita bog'liqdir. Bu esa vatanimiz kelajagi bo'lgan-farandalarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo qiladi.

Yangi O'zbekistonda kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni sog'lom, yetuk va har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashda umumiy o'rta ta'lim maktablarida

o’quvchilar bilan o’tkaziladigan jismoniy tarbiya darslari va o’quv kun tartibidagi sog’lomlashtirish tadbirlari jarayonida o’tkaziladigan harakatli o’yinlarning ahamiyati beqiyosdir.

Ilmiy uslubiy adabiyotlarning taxlilidan ma’lum bo’ldiki, umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi haftada o’tkaziladigan 2 soatli jismoniy tarbiya darsi bolalar organizmini harakatga bogliq bo’lgan talabini 11 foizga, ko’pi bilan dars yuqori zichlikda o’tilsa 40 foizga qoniqtirar ekan. Boshqa jismoniy tarbiya shakllari mashg’ulotgacha bo’lgan gimnastika, jismoniy tarbiya daqiqalari, katta tanaffusdagi harakatli o’yinlar va jismoniy mashqlar, ochiq havodagi ko’ngil ochar o’yinlar, sport to’garaklari, musobaqa va boshqalar muntazam ravishda o’tkazilsa 60 foizga bolalar organizmining haftalik harakatga bo’lgan talablariga javob beradi[1].

T.S.Usmonxo’jayev [4] fikricha, umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi o’quvchilarning kunlik harakat faolligining hajmi 2 soatdan, haftalik harakat 14 soatdan kam bo’lmasligi kerak.

Harakatli o’yinlardan foydalanish jarayonida boshlang’ich maktab o’quvchilarining quyidagi o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak:

1. Bolaning kattalar faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o’zaro muomalasiga, munosabatiga qiziqishi.

2. Bolalar xalq harakatli o’yinlari atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo’shqin his-tuyg’uli jihatlarini aks ettirishini.

3. Xarakatli o’yinlarda bolaning kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o’z istagini amaliyotga tadbiq qila olishi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini har tomonlama tarbiyalashda harakatli o’yinlarning ahamiyati.

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga mos harakatli o’yinlar jismoniy tarbiya darsining asosi hisoblanadi. Shuning uchun maktab dasturida harakatli o’yinlar boshqa materiallarga nisbatan ko’proq o’rin egallaydi. Shu sababli dasturga kiritilgan har xil jismoniy mashqlarni bolalar turli o’yinlar vositasida osonroq idrok qiladilar va o’zlashtiradilar.

Jamoali o’yinlar yetarli darajada chaqqonlik, hozirjavoblik, farosatlilik va jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi va ayni vaqtda bu xususiyatlarni takomillashtiradi.

Yosh bolalar uchun harakatli o’yinlar jismoniy tarbiya darsining asosi bo’lib hisoblanadi. Shuning uchun maktab dasturida o’yinlarga boshqa materiallarga nisbatan ko’proq o’rin ajratiladi. Buning sababi shundaki, dasturga kiritilgan turli xil jismoniy mashqlarni bolalar xilma-xil o’yinlar vositasida osonroq idrok qiladilar va o’zlashtiradilar. O’yinlarda yugurish, sakrash, uloqtirish yoki irg’itish kabi harakatlar bajarilishiga alohida e’tibor berish lozim. Bu yoshdagi bolalar bilan asosan oddiy va o’rtacha murakkablikdagi o’yinlar o’tkaziladi. Agar bolalar yetarli darajada tayyorlangan bo’lsa, yanada murakkabroq, ya’ni guruhlariga bo’linib ijro etiladigan o’yinlarni ham o’tkazish mumkin.

Jamoali o’yinlar yetarli darajada chaqqonlik, hozirjavoblik, farosatlilik va jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi va ayni vaqtda bu xususiyatlarni takomillashtiradi.

O’qituvchi harakatli o’yinlar yordamida jismoniy mashg’ulotlarni qiziqarli o’tkazadi va o’quvchilarida turli harakat ko’nikmalarini hosil qiladi.

O’yin darslarini har o’quv choragining oxirgi o’n kunliklarida o’tkazish maqsadga muvofiqroqdir. Chunki shunda o’qituvchiga bolalar qanday harakat ko’nikmalarini egallagani aniqlash imkonini beradi.

Harakatli o‘yinlar boshlangich sinf darslarida ham ancha keng o‘rin oladi. Bu sinflardagi harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiya darslarida hosil qilingan harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Darsning asosiy qismi muayyan vazifani amalga oshirishga, masalan, basketbol uyinining asosiy elementlarini o‘rgatishga doir o‘yin materiallaridan iborat bo‘lsa, uning kirish kismida "To‘plar poygasi" singari harakatli o‘yinlardan foydalanish mumkin. Bunday hollarda darsning asosiy qismiga "Ovchilar va o‘rdaklar", "Otishma" o‘yinlari kiritiladi. Darsga bolalarga notanish bo‘lgan o‘yinlarni kiritmaslik kerak. O‘yin darslari zo‘r tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan bir vaqtda ilmiy jihatdan kamchiliklardan ham holi emas. Bunga o‘yinlarni o‘tkazish jarayonida o‘ynovchilarda hosil bo‘layotgan ko‘nikmalarni kuzatib va nazorat qilib borishning qiyinlashuvi sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
3. Ismoilov T.U., Ismoilov G’.T. O‘quv kun tartibidagi sog‘lomlashtirish tadbirlari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini harakat faolligini oshirish. NamDU ilmiy axborotnomasi. - Namangan. 2020y. № 4-son.B. 431-434.
4. Usmonxodjayev T.S. va boshqalar. (2010). 500 harakatli o‘yinlar. – T.Bekinmachoq – Plyus, 203 s